



O'ZBEKISTON: MUSTAQILLIKNI MUSTAHKAMLASH VA YANGI HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

« Fransiya-Markazi Osiyo » parlamentlararo do'stlik guruhining Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xivaga tashrifi to'g'risida hisobot

2021-yil 30-avgustdan 6-sentabrgacha

O'zbekiston Respublikasi Senati tomonidan mamlakat mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlarga taklif etilgan do'stlik guruhi raisi, janob Erve More boshchiligidagi « Fransiya-Markazi Osiyo » guruhi delegatsiyasi, o'z tarkibida bo'lgan O'zbekiston bo'yicha rais-delegat, janob Rashid Temal, rais o'rinnbosari janob Lui-Jan de Nikolay va do'stlik guruhi a'zosi, Kristina Plyushe xonimlar bilan 30-avgustdan 6-sentabrgacha Toshkent, Xiva, Buxoro va Samarqandga tashrif buyurishdi.

Delegatsiya O'zbekistonga tashrifining ertasi kuni O'zbekiston Respublikasi Senati bilan uchrashdi va shunigdek Xiva (Xorazm viloyati), Buxoro va Samarqand viloyatlarida yuqori darajada kutib olindi. Mahalliy hokimiyat vakillari o'z viloyatlarining Fransiya regionlari bilan hamkorligini kuchaytirish istagini bildirdilar.

Fransiya Senati vakillari, shuningdek, Toshkentdag'i barcha suhbatdoshlar bilan Afg'onistonidagi inqiroz haqida o'ziga xos kontekst haqida gapirib o'tishi bilan ajralib turdi. Afg'oniston bilan janubda 150 km umumiyl chegaraga ega bo'lgan O'zbekiston delegatsiya kelishidan 15 kun avval chegarani kesib o'tmoqchi bo'lgan Afg'oniston muntazam armiyasi uchq'ini urib tushirgan edi.

I.- Mustaqillikning 30 yilligida O'zbekistonning yangi qiyofasi

31-avgust kuni delegatsiya Mustaqillikning 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlarda ishtiroy etdi.

Shu munosabat bilan Prezident Mirziyoyev uzoq nutq so'zlab, mamlakatda aholi farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar: iqtisodiyotni liberallashtirish, ya'ni bir qancha tarmoqlarda xususiyashtirish, parlamentning hukumat ustidan nazorati rolini

oshirish, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish va liberalallashtirish, xalqaro ochiqlik va qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni tinchlik yo'lida olib borish va boshqalar haqida gapirib o'tdi. 24-oktabr kuni bo'lib o'tgan va birinchi turdayoq 80 % dan ortiq ovoz bilan qayta saylangan Prezident, saylovga ikki oydan kamroq vaqt qolganida, o'z vazifasini topshirayotgan paytda ijtimoiy-iqtisodiy sohada erishilgan yutuqlarni mustahkamlash, mamlakat mustaqilligi va xavfsizligini kafolatlash maqsadida ushbu islohotlarni davom ettirish va kengaytirish majburiyatlarini o'z bo'yniga oldi.



Delegatsiya Mustaqillikning 30 yilligi monumenti oldida Tashqi ishlar vazirining Yevropa bo'yicha o'rinnbosari bilan

Prezident Mirziyoyev o'z nutqida 30-avgust kuni Respublika Prezidenti Emmanuel Makron bilan bo'lib o'tgan uchrashuvini eslatib o'tdi va shu munosabat bilan yagona rasmiy xorijiy delegatsiya bo'lmish senatorlik delegatsiyasini qutladi. Shundan so'ng, rasmiy kechki ovqat paytda Senat delegatsiyasini Tashqi ishlar vaziri janob Abdulaziz Kamilov kutib oldi va delegatsiya Respublika Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus maslahatchisi bilan suhbatlashdi.

Tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinnbosari **janob Farhod Arziyev** delegatsiya bilan uchrashuvda Fransiya bilan strategik hamkorlik, xususan, iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy hamkorlik muhimligini ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilda Fransiyaga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarga hal qiluvchi turki bo'ldi. Tashqi savdo vaziri Frank Risterning may oyidagi tashrifi va mustaqillik tantanalari arafasida Fransiya Prezidenti bilan telefon orqali muloqoti, xususan, iqtisodiy sohada yangi istiqbollarni ochdi. Fransiya Prezidentining O'zbekistonga tashrifi kutilayotgan qo'shimcha qadam bo'lar edi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi elchisi **Sharlotta Adrian xonim** bilan bo'lgan suhbat O'zbekistonning islohotchi burlishini tasdiqladi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha Yevropa dasturlarini muhokama qilish imkoniyatini berdi.

II. Afg'oniston inqirozi O'zbekistonga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Senat delegatsiyasi bilan uchrashgan suhbatdoshlar Afg'onistondagi vaziyatdan xavotirdaliklarini bildirishdi. Ikki hafta oldin Tolibonlar hokimiyatni qo'lga olib, hukumat tuzmoqchi edilar. Sobiq prezident Karzay va parlament spikeri Abdulla Abdulla uy qamog'iga olingan edi.

O'zbekiston shu paytgacha hukmon bo'lgan hokimiyat bilan iqtisodiy rivojlanish istiqboliga ega aloqalarni o'rnatgan bo'lsa-da, Tolibon harakatining kelishi mintaqadagi o'zbek diplomatik vazifalarini murakkablashtirdi va uning Arabiston ko'rfaziga chiqishni ta'minlash uchun Toshkent va Peshovar o'ttasidagi temir yo'l liniyasini rivojlantirishni davom ettirish va Termiz viloyatidagi 150 km uzunlikdagi janubiy chegarasini himoya qilgan holda qo'shni davlat bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha mavjud bo'lgan maqsadlarini shubha ostiga qo'yadi.

A – Qo'shni Afg'oniston bilan konstruktiv muloqot qilish istagi

Mustaqillik marosimidan so'ng delegatsiya O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus maslahatchisi janob Ismatulla Irgashev bilan norasmiy uchrashuv o'tkazdi.

Senatorlar bu suhbatdan shuni bilib oldilarki, O'zbekiston hukumati hech qachon Tolibon bilan aloqani uzmagan va afg'on qo'shnilarini bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish niyatida. Bu jihatdan, O'zbekiston

mintaqadagi Tolibon bilan muloqotga eng ochiq davlat bo'lib ko'rinadi.

Tolibon so'zlariga hech qanday ishonch bildirmayotgan Tojikiston hukumatidan farqli ravishda, O'zbekiston hukumati tavakkal qilgan holda qo'shni Afg'oniton bilan boshlangan hamkorlik loyihamini davom ettirish maqsadida konstruktiv dialog olib borish istagidadir.

Bu yaqin munosabatlarning isboti sifatida janob Irgashev Tolibon hukumati o'rnatilish marosimiga taklif qilinganini aytdi. Irgashevning u yerga borishiga ishonchi komil emas edi, lekin borgan taqdirda ham, uning ishtiroti O'zbekistonning Tolibon hukumatini hech qanday shartlarsiz tan olishga tayyorligini anglatmaydi.

Janob Irgashev, shuningdek, delegatsiyaga pushtun bo'lmagan vakillarning bosqichmabosqich mujohidlar va armiya safidan chiqarilishi bo'yicha xavotirini bildirdi.

U O'zbekiston Tolibon hukumatini tan olishi uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'yilishi kerak bo'lgan uchta shartni batafsil bayon qildi. Bular :

barcha siyosiy kuchlar va turli milliy ozchiliklar vakillarini qamrab oluvchi hukumatni shakllantirish;

ayollar huquqlarining muhimligini ta'kidlagan holda, inson huquqlarining minimal to'plamiga riyox qilish;

terroristik harakatlarga qarshi kurashda kafolatlar.

Bir konsensusga erishish uchun u hamma uchun maqbul bo'lgan cheklangan miqdordagi shartlar bo'yicha kelishib olish yaxshiroq deb hisoblashini aytdi.

Janob Irgashevning so'zlariga ko'ra, shundagina Qatar, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Xitoy va ehtimol ikki taraflama pozitsiyaga ega bo'lgan Rossiya bo'lajak hukumat bilan ishlashga va uni moliyalashga tayyor bo'lardi.

O'zbekiston hududida Afg'oniston fuqarolarini boshqa joyga ko'chirish yechimini kutayotgan shaxslar masalasiga kelsak, maslahatchi Amerika hukumati tomonidan Afg'oniston armiyasining uchuvchilari va yuqori unvonli zabitlari tomonidan viza olish uchun topshirilgan arizalarni ko'rib chiqish kechikayotganini ta'kidladi. Bu esa O'zbekiston rasmiylarining bu boradagi o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishni istamasligining kuchayishiga olib kelyapti.

B – Kelajakni tayyorlash

Delegatsiya “**Chegara bilmas shifokorlar**” (**MSF**) tashkilotining Toshkentdagi filialiga ham tashrif buyurdi va missiya rahbari janob Andrea Fiori bilan suhbatlashdi. Muhokama qilingan mavzular orasida O'zbekistonda silga qarshi kurash dasturi va MSFning Afg'onistonidagi faoliyati ham bor edi.

Tashrif yakunida delegatsiya Afg'onistonning sobiq deputati, Qobul ag'darilganidan beri oilasi bilan Toshkentda quvg'inda bo'lgan **Farxunda Zahra Naderi xonim** bilan uzoq suhbatlashdi.

Naderi xonim Afg'onistonidagi Milliy yarashuv Oliy Kengashi a'zosi, Afg'oniston prezidenti Ashraf G'anining 2016-2018-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan aloqalar bo'yicha maxsus maslahatchisi va 2010-2015-yillarda Qobul viloyati bo'yicha parlament a'zosi bo'lgan, shuningdek, 2010 va 2012-yillarda oralig'ida uch marta Shantiyida o'tkazilgan afg'onlararo konferensiyalarda ishtirok etgan.

U delegatsiyaga Afg'onistonidagi vaziyat bo'yicha o'z tahlilini taqdim etib, Prezident G'ani tomonidan demokratik o'tish davrida yo'l qo'yilgan ayrim xatolarni tan oldi, uning fikricha, bu uning qulashiga olib kelgan bo'lishi mumkin.

Afg'on ayollari huquqlarini himoya qilishga qat'iy sodiq qolgan holda, Naderi xonim bir muddatdan so'ng Tolibon bilan muloqot o'rnatish va inson huquqlarini hurmat qiladigan barqaror, inkyuziv dunyoga o'tishda hamrohlilik qilish uchun Afg'onistonga qaytishni rejalashtirmoqda.

III.- Kengaytirilgan hamkorlik istiqbollari

A – O'zbekiston Parlamenti bilan birlgilikda

1. O'zbekiston Senati bilan hamkorlik qilish bo'yicha yo'l xaritasi

Delegatsiya O'zbekiston Senatidagi hamkasblari bilan ikki marta uchrashish imkoniga ega bo'ldi.

31-avgust kuni O'zbekiston Senati taklifiga binoan senatorlar raisning birinchi o'rnbosari **janob Sodiq Safoyev** bilan uchrashdi. Uchrashuvlarda, xususan, Fransiya-O'zbekiston munosabatlari va Afg'oniston kontekstida mintaqaviy vaziyatning rivojlanishi, shuningdek, ikki davlat o'rtaсидagi parlamentlararo hamkorlikni faollashtirishga xizmat qiladigan umumiy manfaatlarga ega bo'lgan masalalar muhokama qilindi. Xususan, global isish va uning Orol dengizidagi keskin oqibatlari haqida uzoq fikr almashildi. Senat raisining birinchi o'rnbosari delegatsiyani iqlim

falokatining ko'lamini ko'rish uchun u yerga borishni taklif qildi.



3

Delegatsiya O'zbekiston Senati raisining birinchi o'rnbosari, janob Sodiq Safayev bilan

2-sentabr kuni Fransiya muvaqqat ishlar vakili janob Bris Rokfeyning taklifiga binoan senatorlar Fransiya qarorgohida o'zbekistonlik hamkasblari, raisning birinchi o'rnbosari janob Sodiq Safoyev, xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investisiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi, janob Ravshanbek Alimov, byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha qo'mita raisi, Fransiya Senati bilan hamkorlik bo'yicha parlament guruhi a'zosi, janob Erkin Gadoev, va xalqaro aloqalar bo'yicha direktor o'rnbosari, janob Mirbotir Mirhamidovlar bilan fikr almashdilar. Ular, xususan, parlament tomonidan hukumat faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, ayniqa, byudjet sohasida parlament hamkorligi dasturini ishlab chiqishga kelishib oldilar.

2. O'zbekiston parlamenti quyi palatasi bilan parlamentlararo forum



Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rnbosari janob Akmal Saidov bilan

Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rnbosari janob Akmal Saidov bilan uchrashuv chog'ida parlament faoliyatiga doir hamkorlikning bir qancha yo'nalishlari muhokama qilindi, hukumat faoliyatini

monitoring qilishga katta qiziqish bildirildi. Senatorlar janob Akmal Saidovning parlament faoliyatini tashkil etishda sanitar-epidemiologik inqirozning oqibatlariga bag'ishlangan parlamentlararo forum tashkil etish to'g'risidagi taklifini alohida ma'qulladilar.

B – Xiva, Buxoro va Samarqand viloyatlariga tashrif

Do'stlik guruhining missiyasi Buxoro va Samarqand viloyatlarda davom etib, senatorlar Buxoro viloyati hokimi **janob Botir Zaripov** va Samarqand viloyati hokimi o'rinosari bilan uchrashdi.

Uchrashuvlarda, asosan, milliy merosni rivojlantirish, sanitar-epidemiologik inqirozning turistik faoliyatga ta'siri va ushbu sohada markazlashmagan hamkorlikni rivojlantirish usullari muhokama qilindi.

C – Buxoro davlat universitetida

Buxoroda senatorlar **universitet rektori janob Obidjon Hamidov** bilan uchrashib, universitetlararo hamkorlik va fransuz tilini o'qitishni rivojlantirish masalalarini muhokama qildilar.

1930-yilda tashkil etilgan universitetda 13 ta fakultet va bir institut filiali mayjud bo'lib, u yerda 25 ming talaba tahsil oladi. Universitetda 1400 nafar o'qituvchi, shu jumladan 34 nafar fransuz tili o'qituvchisi bor. O'qitiladigan fanlar orasida kimyo, matematika, biologiya, iqtisod kabi aniq fanlar asosiy o'rinn olgan. Shuningdek, o'qitishning baynalmilallahuvi ham mavjud bo'lib, barcha fanlardan 49 nafar chet ellik o'qituvchilar dars beradi.

Universitet Markaziy Osiyoning qo'shni davlatlari, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Ruminiya, Janubiy Koreya, AQSH va Kanadadagi ko'plab xorijiy universitetlar bilan aloqada bo'lib, « Erasmus+ » dasturi orqali talabalar va o'qituvchilar almashinuvini rivojlantirmoqda. 10 300 talaba fransuz tilini o'rganishni tanlagan bo'lib, bulardan 300 nafari birinchi til sifatida, 10 000 nafari esa ikkinchi til sifatida o'rganmoqda. Universitet bir nechta hamkorlikni yo'lga qo'ygan, xususan, Turdag'i Rabele universiteti, shuningdek, Parijdagi Sorbonna bilan.

Talabalar uchun har oy o'tkaziladigan tanlovlар va fransuz zabon teatr va qo'shiq festivallari yordamida frankofonlar uchun haqiqiy dinamizm mayjud.

Universitetda fransuz tili bo'limining mavjudligi mintaqaga o'rnak bo'lib, 60 dan ortiq maktablarda fransuz tili o'qtiladi, shu jumladan uchta maktabda uni birinchi til sifatida o'rganiladi.

D – Iqtisodiy sohada

5-sentabr kuni ishchi nonushta davomida Senat delegatsiyasi O'zbekistonda joylashgan fransuz kompaniyalarining bir qancha vakillari bilan muloqot qildi.

Ularning barchasi bu keng miyosda o'zgarishlar olib borilayotgan mamlakatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan sarmoyaviy imkoniyatlarni eslatib o'tdi.

Bunda amalga oshirilayotgan xususiyashtirish muhim hissa qo'shamoqda. Biroq ikki davlat o'rtaсидagi hamkorlikni rivojlantirish uchun bir qancha to'siq yoki qiyinchiliklarni yengib o'tish kerak.

Boshqa sohalarda bo'lgani kabi bu borada ham hamkorlik istiqbollari ko'p.

Delegatsiya tarkibi



Janob Erve MORE

Guruh raisi
Er senatori
(Markazlashgan ittifoq guruh)

Janob Rashid TEMAL

Rais delegat (O'zbekiston bo'yicha)
Val d'Uaz senatori
(Sotsialist, ekolog va respublikachi)

Janob Lui-Jan NIKOLAY

Guruh raisi o'rinosari
Sart senatori
(Respublikachi)

Kristina PLYUSHE xonim

Guruh a'zosi
Er senatori
(Respublikachi)